

# Auditoriya Mashg‘Ulotlari Va Talabalar Mustaqil Ta’limini Individuallashtirish Metodlari

*Arzikulova Surayyo Fayzullayevna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada auditoriya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish, talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish hamda ularni individuallashtirishga oid zamonaviy pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va metodlar yoritiladi. Shuningdek, har bir talabaning qiziqishi, bilish sur’ati, qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishning amaliy asoslari tahlil qilinadi.

## Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda individual yondashuvni muhim omil sifatida qaramoqda. Ayniqsa, oliv ta’limda talabalar bilim darajasi, o‘quvga bo‘lgan munosabati, bilish motivatsiyasi va mustaqil ishslash salohiyati bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Shu bois, auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limni individuallashtirish metodlari nafaqat ta’lim sifati, balki talabaning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

## Asosiy qism

Auditoriya mashg‘ulotlarining mohiyati va maqsadini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, auditoriya mashg‘ulotlari – bu o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan an‘anaviy va interaktiv dars shakllari bo‘lib, o‘quvchilarga bilim berish, uni chuqurlashtirish va nazorat qilish imkonini beradi. Zamonaviy auditoriya darslari esa modul va kredit tizimlariga mos, interaktiv, aks ettiruvchi yondashuvlarga asoslangan, tahliliy, diagnostik hamda ijtimoiy-kommunikativ faollikni oshiruvchi shakllarda bo‘ladi.

Dars mashg‘ulotlari jarayonida qo‘yidagi metodlardan ya’ni Case-stadi (holatlari o‘rganish), muammo asosida o‘rganish, munozara, “Aqliy hujum”, debatlar, “Fishbone”, “Insert”, “Klaster” metodlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta’lim: mohiyati va o‘rni haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, mustaqil ta’lim – talabaning o‘zi rejallashtirgan, izlanish asosida bilim olish faoliyati bo‘lib, zamonaviy ta’lim jarayonining markazida turadi. Bu jarayon: tanqidiy fikrlashni, axborotlarni izlab topish va tahlil qilishni, o‘zini baholashni, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishni talab qiladi.

## Individuallashtirish nima?

Individuallashtirish – bu har bir talabaga uning bilim darajasi, intellektual salohiyati, qiziqishi, ehtiyojlari va o‘quv sur’ati asosida yondashishdir. Bu yondashuv ta’limda samaradorlikni oshiradi, chunki har bir talaba o‘ziga mos metod orqali faolroq ishtirok etadi.

## 4. Talaba mustaqil ta’limini individuallashtirish metodlari

Metod nomi	Mazmuni	Afzalliklari
Portfolio usuli	Talabaning mustaqil ishlari, yutuqlari, tahlil va tavsiyalar jamlanmasi	O‘z-o‘zini baholash, natijaviylik
Differensial yondashuv	Turli darajadagi topshiriqlar berish	Qiyinlik darajasini nazorat qilish
Masofaviy (onlayn) o‘quv	Moodle, Google Classroom,	Vaqt va joydan mustaqillik

<sup>1</sup> Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi



platformalar	Coursera, Khan Academy	
Ijodiy loyihalar	Erkin mavzuda loyiha tayyorlash	Qiziqishni rag‘batlantirish, mustaqillik
Mentorlash	Kuchli talabani boshqalarga mentor sifatida biriktirish	Ko‘nikmalarни mustahkamlash, tajriba almashish
Refleksiya kundaligi	Talaba har bir mashg‘ulotdan so‘ng fikr yozadi	O‘zgarishni anglash, fikrlashni faollashtirish

### Axborot texnologiyalari va raqamli ta’lim vositalari

Individuallashtirishni samarali tashkil etishda quyidagi vositalar katta ahamiyatga ega:

- LearningApps, Quizizz, Kahoot – testlar va o‘yinli mashg‘ulotlar
- Canva, Padlet – ijodiy topshiriqlar
- ChatGPT, Copilot – matn tahlili va tafakkur mashqlari.

Individuallashtirilgan ta’limda o‘qituvchi:

- Yo‘naltiruvchi (mentor)
- Yordamchi (facilitator)
- Baholovchi (assessor)
- Rag‘batlantiruvchi (motivator) sifatida namoyon bo‘ladi.

### Xulosa

Auditoriya mashg‘ulotlarini individual yondashuv asosida tashkil etish va talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish orqali o‘quv jarayonining natijadorligi sezilarli darajada oshadi. Har bir talabaning o‘ziga xosligini inobatga olish orqali ularning o‘quvga bo‘lgan ishtyoqi, fikrlash darajasi va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Bu esa – zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim konsepsiysi. – 2019.
2. Hasanboyeva N., Ergashova D. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – T.: 2021.
3. John Biggs. “Teaching for Quality Learning at University”. – 2020.
4. Moodle platformasining o‘quv qo‘llanmalari.
5. Oliy ta’limda kredit-modul tizimi bo‘yicha metodik tavsiyalar.

